



Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida, Farg'ona viloyatida jami 11 461,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,1% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati shaharlar:		
Farg'ona shahri	2260,1	113,9
Qo'qon shahri	610,3	102,7
Quvasoy shahri	216,0	118,2
Marg'ilon shahri	1075,7	130,3



	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
tumanlar:		
Oltiariq tumani	325,8	102,4
Qo'shstepta tumani	400,5	113,2
Bag'dod tumani	206,1	108,7
Buvayda tumani	356,0	121,8
Beshariq tumani	163,3	112,8
Quva tumani	240,8	106,1
Uchko'prik tumani	346,5	118,1
Rishton tumani	114,7	107,3
So'x tumani	124,8	111,4
Toshloq tumani	362,0	102,2
O'zbekiston tumani	292,6	181,7
Farg'ona tumani	298,4	101,9
Dang'ara tumani	301,2	109,3
Furqat tumani	120,5	103,2
Yozyovon tumani	254,4	106,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 71,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,9 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	940,5	739,5	110,0
o'sish sur'ati, %	96,0	75,5	109,9
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 764,3	1 689,5	716,2
o'sish sur'ati, %	111,0	49,8	124,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	3 499,0	2,6	-
o'sish sur'ati, %	106,7	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar

turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-avgust oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 790,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 126,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,6 % ga ko'payib, 15,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,8 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ni tashkil etgan holda 6 170,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,6 % ni yoki 3 501,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

■ yiriklar hajmi, mlrd so'mda	■ kichik va mikrofirma hajmi, mlrd so'mda
■ norasmiy sektor hajmi, mlrd so'mda	■ yiriklar o'sish sur'ati
■ kichik va mikrofirma o'sish sur'ati	■ norasmiy sektor o'sish sur'ati





Shahar, tumanlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati		3		4	5
shaharlari:					
Farg'ona shahri	269,7	1797,9	192,5	113,5	113,2
Qo'qon shahri	59,4	403,7	147,2	50,9	118,9
Quvasoy shahri	7,0	162,3	46,7	46,0	133,4
Marg'ilon shahri	613,7	357,8	104,2	189,0	87,5
tumanlar:					
Oltiariq tumani	13,4	217,8	94,6	27,3	121,7
Qo'shtepa tumani	177,9	116,1	106,5	133,8	86,6
Bag'dod tumani	26,5	99,4	80,2	205,8	90,1
Buvayda tumani	81,9	183,2	90,9	124,5	140,3
Beshariq tumani	9,8	79,1	74,4	115,0	111,2
Quva tumani	15,1	110,8	114,9	155,5	107,4
Uchko'prik tumani	5,9	309,0	31,6	73,6	129,1
Rishton tumani	8,7	38,5	67,5	168,4	67,8
So'x tumani	9,1	91,8	23,9	297,6	123,7
Toshloq tumani	15,3	223,8	122,9	280,4	88,7
O'zbekiston tumani	7,2	248,2	37,2	81,0	201,2
Farg'ona tumani	85,0	137,1	76,3	116,8	100,4
Dang'ara tumani	15,1	248,6	37,5	18,4	171,1
Furqat tumani	5,4	63,0	52,1	126,9	103,2
Yozyovon tumani	42,3	155,2	56,9	238,9	114,8
					65,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari eng yuqori o'sish sur'atlari 2024-yilning mos davriga nisbatan So'x tumanida 3,0 marta va Toshloq tumanida 2,8 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta), Dang'ara tumanida (1,7 marta) va Buvayda tumanida (140,3%) kuzatildi.



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyomatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamin ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiyamat solig'ini qo'shmag'an holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanimishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-42